

INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA AMALIY TAHLILI (KORXONALAR MISOLIDA)

Gafurova Umida Fatixovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning nazariy-uslubiy asoslari hamda uning amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida innovatsion faoliyat samaradorligini baholashga doir mavjud ilmiy yondashuvlar, jumladan input-output modeli, kompleks baholash tizimi hamda integratsiyalashgan samaradorlik indeksleri o‘rganildi. Shuningdek, korxonalar misolida innovatsion faoliyat ko‘rsatkichlarining dinamik o‘zgarishi tahlil qilinib, investitsiyalar, yangi mahsulotlar soni va daromad o‘sishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlangan. Natijalar innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda faqat moliyaviy ko‘rsatkichlarga emas, balki texnologik, ijtimoiy va strategik omillarga ham tayanish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot yakunida korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, innovatsion faoliyat, samaradorlik, korxonalar, investitsiya, R&D, input-output modeli, KPI, Balanced Scorecard, innovatsion rivojlanish, texnologik yangilanish, iqtisodiy samaradorlik, integratsiyalashgan yondashuv.

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические и методологические основы оценки эффективности инновационной деятельности на предприятиях и ее практические аспекты. В ходе исследования были изучены существующие научные подходы к оценке эффективности инновационной деятельности, включая модель «затраты-выпуск», комплексную систему оценки и интегрированные показатели эффективности. Также был проанализирован динамический характер изменения показателей инновационной деятельности на примере предприятия и выявлена взаимосвязь между инвестициями, количеством новых продуктов и ростом выручки. Результаты показывают, что при оценке эффективности инновационной деятельности необходимо опираться не только на финансовые показатели, но и на технологические, социальные и стратегические факторы. По завершении исследования были разработаны научно-практические предложения по повышению эффективности инновационной деятельности на предприятиях.

Ключевые слова: инновации, инновационная деятельность, эффективность, предприятие, инвестиции, НИОКР (R&D), модель «затраты-выпуск» (input-output), KPI, сбалансированная система показателей (Balanced

Scorecard), инновационное развитие, технологическое обновление, экономическая эффективность, интегрированный подход.

Abstract

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of assessing the effectiveness of innovative activity in enterprises and its practical aspects. During the study, existing scientific approaches to assessing the effectiveness of innovative activity, including the input-output model, a complex assessment system, and integrated performance indices, were studied. Also, the dynamic change in innovative activity indicators on the example of an enterprise was analyzed, and the relationship between investments, the number of new products, and revenue growth was identified. The results show that when assessing the effectiveness of innovative activity, it is necessary to rely not only on financial indicators, but also on technological, social, and strategic factors. At the end of the study, scientific and practical proposals were developed to improve the effectiveness of innovative activity in enterprises.

Keywords: innovation, innovative activity, efficiency, enterprise, investment, R&D, input-output model, KPI, Balanced Scorecard, innovative development, technological modernization, economic efficiency, integrated approach.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalar iqtisodiy o'lishning asosiy drayveri sifatida namoyon bo'lib, korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Innovatsion faoliyat nafaqat yangi mahsulot va texnologiyalarni joriy etishni, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda bozor ulushini kengaytirishni ham ta'minlaydi. Shu sababli innovatsion faoliyat samaradorligini baholash masalasi iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda yagona universal metodologiya mavjud emas. Har bir korxonada o'z faoliyat sohasi, resurslari va strategik maqsadlaridan kelib chiqib turli yondashuvlardan foydalanadi. Shu bilan birga, samaradorlikni aniqlashda moliyaviy (NPV, IRR, ROI), ishlab chiqarish, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarning kompleks tahlili talab etiladi [1].

Innovatsion faoliyatni baholashning nazariy-uslubiy asoslarini chuqur o'rganish, mavjud yondashuvlarni tahlil qilish va ularni amaliyot bilan uyg'unlashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida korxonalarda innovatsion jarayonlarning samaradorligini aniqlash va baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati yanada ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion faoliyat zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Innovatsiyalarni samarali boshqarish va ularning natijadorligini baholash iqtisodiy o'lishning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Hozirgi sharoitda innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda kompleks yondashuv talab etiladi. Chunki innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy natijalar, balki ijtimoiy, texnologik va institutsional o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli mazkur maqolada innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning nazariy asoslari va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilinadi.

J. Shumpeter innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rib, "ijodiy vayronkorlik" nazariyasini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, innovatsiyalar eski texnologiyalarni yangilari bilan almashtirib, iqtisodiy tizimni dinamik ravishda rivojlantiradi [2]. Fikrimizcha, bu yondashuv innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda uning uzoq muddatli strategik ta'sirini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

P. Drucker innovatsiyani tadbirkorlikning asosiy instrumenti sifatida talqin qiladi va uni tizimli boshqarish orqali samaradorlikka erishish mumkinligini ta'kidlaydi [3]. Fikrimizcha, innovatsion faoliyatni baholashda boshqaruv samaradorligi alohida mezon sifatida qaralishi lozim.

M. Porter innovatsiyalarni korxonalar va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omil deb hisoblaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, innovatsiyalar strategik ustunlik yaratadi [4]. Fikrimizcha, bu yondashuv innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda bozor ulushi va raqobat ustunligi ko'rsatkichlarini qo'llash zarurligini anglatadi.

C. Freeman innovatsiyalarni milliy innovatsion tizim doirasida o'rganib, ularning samaradorligi institutsional muhit bilan chambarchas bog'liqligini asoslaydi [5]. Fikrimizcha, korxonalar darajasida ham innovatsiyalar samaradorligini baholashda tashqi muhit omillarini hisobga olish muhimdir.

B. Lundvall innovatsiyalarni interaktiv o'rganish jarayoni sifatida talqin qiladi va ularning samaradorligi bilim almashinuvi hamda hamkorlik darajasiga bog'liqligini ta'kidlaydi [6]. Fikrimizcha, innovatsion faoliyatni baholashda bilimlar oqimi va hamkorlik darajasi kabi sifat ko'rsatkichlarini ham inobatga olish zarur.

O. Davlatova innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarning integratsiyasini taklif etadi [7]. Fikrimizcha, bu yondashuv zamonaviy baholash tizimlari uchun eng maqbul yondashuvlardan biri hisoblanadi.

P. Allaniyazov innovatsion loyihalar samaradorligini baholashda NPV, IRR va ROI kabi moliyaviy ko'rsatkichlarning muhimligini asoslaydi [8]. Fikrimizcha, ushbu ko'rsatkichlar qisqa muddatli samaradorlikni aniqlashda samarali bo'lsa-da, innovatsiyaning uzoq muddatli ta'sirini to'liq aks ettirmaydi.

R.A. Fatxutdinov innovatsion faoliyat samaradorligini kompleks - iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarda baholashni taklif etadi [9]. Fikrimizcha, aynan kompleks yondashuv innovatsiyalar samaradorligini to'liq va obyektiv baholash imkonini beradi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning

mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni oʻrganish davomida umum-iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion faoliyat samaradorligini baholash iqtisodiy nazariyada murakkab va koʻp qirrali jarayon sifatida talqin etiladi. Zamonaviy sharoitda korxonalarining raqobatbardoshligi, avvalo, ularning innovatsion salohiyati va ushbu faoliyatdan olinayotgan natijalar bilan belgilanadi. Shu sababli innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda nafaqat yakuniy iqtisodiy natijalar, balki ushbu natijalarga olib keluvchi omillar tizimini ham chuqur oʻrganish zarur. Innovatsiyalar oʻz tabiatiga koʻra noaniqlik va tavakkalchilik bilan bogʻliq boʻlgani sababli, ularning samaradorligini aniqlash anʼanaviy iqtisodiy baholash usullariga nisbatan murakkabroq yondashuvni talab qiladi.

Nazariy jihatdan innovatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilishda keng qoʻllaniladigan yondashuvlardan biri bu input-output modeli hisoblanadi. Ushbu modelga koʻra innovatsion faoliyat resurslar (input), jarayon (process), natijalar (output) va yakuniy taʼsir (outcome) bosqichlari orqali izchil ravishda tahlil qilinadi. Resurslar sifatida moliyaviy mablagʻlar, ilmiy-tadqiqot xarajatlari, inson kapitali va texnologik imkoniyatlar qaraladi. Jarayon bosqichida esa ushbu resurslarning qanday boshqarilayotgani, yaʼni ilmiy izlanishlar, tajriba-konstruktorlik ishlari va innovatsion boshqaruv mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Natijalar bosqichida yangi mahsulotlar, xizmatlar, patentlar va texnologiyalar yaratilishi kuzatiladi, yakuniy bosqichda esa ushbu innovatsiyalarning iqtisodiy samarasi - daromadning oshishi, xarajatlarning kamayishi va bozor ulushining kengayishi bilan ifodalanadi. Fikrimizcha, aynan yakuniy taʼsir bosqichi innovatsion faoliyat samaradorligini real baholashda hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u innovatsiyaning iqtisodiy tizimdagi amaliy natijasini aks ettiradi.

Innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda kompleks yondashuv alohida oʻrin tutadi. Ushbu yondashuvga koʻra, samaradorlik faqat moliyaviy natijalar bilan emas, balki texnologik, bozor va ijtimoiy koʻrsatkichlar tizimi orqali aniqlanishi lozim. Moliyaviy koʻrsatkichlar sifatida investitsiya rentabelligi (ROI), sof joriy qiymat (NPV) va ichki rentabellik normasi (IRR) qoʻllaniladi. Shu bilan birga, texnologik koʻrsatkichlar - yangi mahsulotlar soni, patentlar miqdori va ishlab chiqarishning texnologik darajasi - innovatsion faoliyatning sifat jihatlarini ifodalaydi. Bozor koʻrsatkichlari, jumladan sotuv hajmi, bozor ulushi va eksport salohiyati innovatsiyalarning tijorat muvaffaqiyatini koʻrsatadi. Ijtimoiy koʻrsatkichlar esa ish oʻrinlari yaratish, xodimlar malakasini oshirish va innovatsion madaniyatni shakllantirish orqali baholanadi. Fikrimizcha, aynan ushbu koʻrsatkichlarning integratsiyalashgan holda qoʻllanilishi innovatsion faoliyat samaradorligini eng toʻliq va obyektiv baholash imkonini beradi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda innovatsion faoliyat samaradorligini umumlashtirilgan holda ifodalash uchun integrallashgan koʻrsatkich - samaradorlik indeksi keng qoʻllanilmoqda. Ushbu indeks odatda natijalar va sarflangan resurslar

nisbatini ifodalaydi, ya'ni innovatsion faoliyatdan olingan iqtisodiy va texnologik foyda uning uchun sarflangan mablag'lar va resurslarga nisbatan baholanadi. Mazkur yondashuv soddaligi va amaliy qulayligi bilan ajralib turadi, chunki u turli ko'rsatkichlarni yagona mezonga keltirish imkonini beradi. Shu bilan birga, faqat kvantitativ ko'rsatkichlarga asoslanish innovatsion faoliyatning barcha jihatlarini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Fikrimizcha, samaradorlik indeksini qo'llashda sifat ko'rsatkichlari - innovatsion salohiyat, bilimlar oqimi va texnologik rivojlanish darajasi kabi omillarni ham hisobga olish zarur, chunki aynan ular uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Quyida shartli sanoat korxonasi misolida innovatsion faoliyat samaradorligi dinamikasi keltiriladi.

1-jadval.

Innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari dinamikasining amaliy tahlili (korxonada misolida) [11]

Yil	R&D investitsiya, mln AQSH dollarida	Yangi mahsulotlar soni	Daromad o'sishi, foizda	Samaradorlik indeksi
2020	50	5	3	0.45
2021	65	7	5	0.52
2022	80	9	7	0.6
2023	95	12	10	0.68
2024	120	15	14	0.78

1-jadval ma'lumotlari asosida korxonada innovatsion faoliyat samaradorligining yillar kesimidagi o'zgarishi tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020-2024 yillar davomida korxonaning ilmiy-tadqiqot (R&D) faoliyatiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi izchil oshib borgan. Xususan, ushbu ko'rsatkich 50 mln. dollardan 120 mln. dollargacha ortgan bo'lib, bu 2,4 barobarlik o'sishni tashkil etadi. Mazkur holat korxonada innovatsion rivojlanishga strategik e'tibor kuchayganligini anglatadi.


Investitsiyalar hajmining ortishi bilan bir qatorda, yangi mahsulotlar sonining ham sezilarli darajada ko'paygani kuzatiladi. Agar 2020-yilda 5 ta yangi mahsulot joriy etilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 15 taga yetgan. Bu esa innovatsion faoliyat natijadorligining oshganini va ilmiy-tadqiqot ishlari amaliy natijalarga muvaffaqiyatli transformatsiya qilinayotganini ko'rsatadi.

Daromad o'sish sur'atlari ham ijobiy dinamikani namoyon etadi. 2020-yilda 3% ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 14% ga yetgan. Bu esa innovatsion faoliyatning korxonada moliyaviy natijalariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, samaradorlik indeksi ham 0,45 dan 0,78 gacha oshgan bo'lib, bu innovatsion resurslardan foydalanish samaradorligi ortib borayotganini anglatadi.

Fikrimizcha, mazkur natijalar innovatsion investitsiyalar, texnologik yangilanish va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini yaqqol namoyon

etadi. Biroq, bu bog‘liqlik doimiy va avtomatik emas, balki samarali boshqaruv, to‘g‘ri strategiya va resurslardan oqilona foydalanishga ham bevosita bog‘liqdir.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarini yanada aniqroq tasavvur qilish va innovatsion faoliyat samaradorligining vaqt bo‘yicha o‘zgarish tendensiyasini aniqlash maqsadida, samaradorlik indeksining dinamikasi grafik ko‘rinishda tasvirlanadi. Grafik orqali nafaqat umumiy o‘sinh tendensiyasini, balki har bir yil kesimidagi o‘zgarish sur‘atlarini ham vizual tarzda baholash imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, grafik tahlil orqali samaradorlik indeksining barqaror o‘sib borayotganligi, ya’ni innovatsion faoliyat natijalarining yildan-yilga yaxshilanib borayotganligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu esa korxonada innovatsion rivojlanish strategiyasi samarali yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rsatadi.



1-rasm. Samaradorlik indeksi dinamikasi, yillar kesimida [11]

1-rasm ma’lumotlari innovatsion faoliyat samaradorligi indeksining 2020-2024 yillar davomida izchil va barqaror o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. Xususan, indeksning 0,45 dan 0,78 gacha oshishi korxonada innovatsion resurslardan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanganligini anglatadi. Grafikda keskin pasayish holatlarining mavjud emasligi innovatsion faoliyatning tizimli va barqaror rivojlanganidan dalolat beradi.

Fikrimizcha, mazkur tendensiya korxonada innovatsion boshqaruvning samarali yo‘lga qo‘yilganligini, investitsiyalar va natijalar o‘rtasida muvozanat mavjudligini hamda innovatsiyalarni joriy etish jarayoni strategik asosda olib borilayotganini ko‘rsatadi.

Korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda turli usullar keng qo‘llanilib, ular o‘zining metodologik yondashuvi va amaliy ahamiyati bilan farqlanadi. Ushbu usullarni shartli ravishda moliyaviy, strategik va kompleks baholash yondashuvlariga ajratish mumkin.

Birinchidan, moliyaviy baholash usullari innovatsion faoliyat samaradorligini aniqlashda eng an’anaviy va keng tarqalgan yondashuv hisoblanadi. Ushbu usullar doirasida investitsiya rentabelligi (ROI), sof joriy qiymat (NPV) va ichki rentabellik

normasi (IRR) kabi ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Mazkur indikatorlar innovatsion loyihalarning iqtisodiy jihatdan qanchalik foydali ekanligini aniqlash imkonini beradi. Biroq, ushbu usullarning asosiy kamchiligi shundaki, ular asosan qisqa muddatli moliyaviy natijalarga e'tibor qaratadi va innovatsiyaning uzoq muddatli strategik hamda ijtimoiy ta'sirini to'liq aks ettirmaydi.

Ikkinchidan, zamonaviy korxonalarda strategik baholash vositasi sifatida Balanced Scorecard (BSC) tizimi keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv innovatsion faoliyatni faqat moliyaviy natijalar orqali emas, balki mijozlar ehtiyojini qondirish darajasi, ichki biznes jarayonlari samaradorligi hamda o'rganish va rivojlanish imkoniyatlari orqali kompleks tarzda baholashni nazarda tutadi. BSC tizimi innovatsiyalarni korxonaning umumiy strategiyasi bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi va uzoq muddatli rivojlanish uchun muhim asos yaratadi.


Uchinchidan, KPI (Key Performance Indicators) tizimi innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda muhim amaliy vosita sifatida qo'llaniladi. Ushbu yondashuvda korxonada faoliyati aniq o'lchovli ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Jumladan, yangi mahsulotlar ulushi, innovatsiyalardan olingan daromad ulushi, ilmiy-tadqiqot xarajatlarining samaradorligi kabi indikatorlar keng qo'llaniladi. KPI tizimi korxonaga o'z faoliyatini doimiy monitoring qilish va zarur hollarda tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

To'rtinchidan, zamonaviy amaliyotda kompleks va integratsiyalashgan yondashuvlar tobora keng qo'llanilmoqda. Bunda moliyaviy, texnologik va ijtimoiy ko'rsatkichlar yagona tizimga birlashtirilib, innovatsion faoliyatning umumiy samaradorligi aniqlanadi. Ushbu yondashuv innovatsion jarayonlarning barcha jihatlarini qamrab olishi bilan ajralib turadi va eng obyektiv baholash imkonini beradi.

Innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda aynan integratsiyalashgan yondashuvlardan foydalanish eng maqbul hisoblanadi, chunki u korxonaning real holatini har tomonlama aks ettiradi va strategik qarorlar qabul qilish uchun mustahkam asos yaratadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan nazariy yondashuvlar va amaliy baholash usullari innovatsion faoliyat samaradorligini kompleks tizim sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu jarayonning o'zaro bog'liq elementlarini yanada aniqroq tasavvur qilish uchun uni tizimli shaklda ifodalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda quyida innovatsion faoliyat samaradorligini shakllantiruvchi asosiy omillar, jarayonlar va natijalar o'rtasidagi bog'liqlik infografik ko'rinishda aks ettiriladi.

2-rasm innovatsion faoliyat samaradorligini bosqichma-bosqich tizim sifatida ifodalaydi. Birinchi bosqich - resurslar bosqichi bo'lib, unda innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy omillar jamlanadi. Bu yerda moliyaviy investitsiyalar, yuqori malakali kadrlar, zamonaviy texnologiyalar hamda bilim va axborot resurslari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fikrimizcha, aynan resurslarning sifat va miqdor jihatdan yetariligi keyingi bosqichlarning samaradorligini belgilab beradi.



2-rasm. Innovatsion faoliyat samaradorligi tizimi [11]

Ikkinchi bosqich - jarayon bosqichi bo‘lib, unda mavjud resurslar real innovatsion faoliyatga aylantiriladi. Bu bosqichda ilmiy-tadqiqot ishlari, tajriba-konstruktorlik faoliyati va innovatsion boshqaruv mexanizmlari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi innovatsion jarayonlarning tezligi va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Fikrimizcha, aynan jarayon bosqichida boshqaruv sifati hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Uchinchi bosqich - natijalar bosqichi bo‘lib, bu yerda innovatsion faoliyatning bevosita mahsuli shakllanadi. Yangi mahsulotlar, texnologiyalar, patentlar va boshqa innovatsion natijalar aynan shu bosqichda yuzaga keladi. Ushbu bosqich innovatsion faoliyatning ko‘rinadigan va o‘lchanadigan natijalarini ifodalaydi. Fikrimizcha, natijalar bosqichi innovatsion faoliyatning samaradorligini dastlabki baholash imkonini beradi.

To‘rtinchi bosqich - ta’sir bosqichi bo‘lib, unda innovatsiyalarning iqtisodiy va bozor natijalari namoyon bo‘ladi. Ya’ni daromadning oshishi, xarajatlarning kamayishi, bozor ulushining kengayishi va umumiy raqobatbardoshlikning ortishi aynan ushbu bosqichda yuz beradi. Fikrimizcha, innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda aynan ushbu bosqich eng muhim hisoblanadi, chunki u real iqtisodiy foydani aks ettiradi.

Yakuniy bosqich - samaradorlikni baholash bosqichi bo‘lib, bunda barcha oldingi bosqichlar natijalari umumlantiriladi. Bu yerda ROI, NPV, IRR kabi moliyaviy ko‘rsatkichlar, samaradorlik indeksi hamda KPI tizimi asosida kompleks baholash amalga oshiriladi. Fikrimizcha, aynan ushbu bosqich innovatsion faoliyatni strategik boshqarish va kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash uchun muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tizim innovatsion faoliyat samaradorligi o‘zaro bog‘liq va izchil bosqichlardan iborat murakkab tizim ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli uni baholashda

faqat bitta ko‘rsatkichga emas, balki barcha bosqichlarni qamrab oluvchi kompleks yondashuvga tayanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqorida olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyat samaradorligi ko‘p omilli va murakkab iqtisodiy kategoriya bo‘lib, uni baholashda tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, innovatsion jarayonlarning resurslardan boshlab yakuniy iqtisodiy natijalargacha bo‘lgan barcha bosqichlarini qamrab olgan holda tahlil qilish samaradorlikni to‘g‘ri aniqlash imkonini beradi.

Amaliy tahlil natijalari asosida aniqlanishicha, innovatsiyalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining oshishi bevosita yangi mahsulotlar sonining ko‘payishi, daromadlar o‘sishi va umumiy samaradorlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga olib keladi. Shu bilan birga, ushbu bog‘liqlik faqat miqdoriy omillar bilan emas, balki boshqaruv sifati, strategik rejalashtirish va innovatsion infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan ham belgilanadi.

O‘rganilgan nazariy yondashuvlar va amaliy usullar shuni tasdiqlaydiki, innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Aksincha, texnologik, ijtimoiy va institutsional omillarni ham qamrab oluvchi kompleks baholash tizimini shakllantirish zarur. Shu nuqtai nazardan, innovatsion samaradorlikni baholashda integratsiyalashgan ko‘rsatkichlar tizimi eng maqbul yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari innovatsion faoliyat samaradorligini baholash masalasi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida dolzarb va ko‘p qirrali muammo ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Innovatsiyalar korxonalarining uzoq muddatli rivojlanishi, raqobatbardoshligini ta‘minlash va iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishda asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda yagona universal metodologiya mavjud emas, biroq mavjud yondashuvlar - moliyaviy, strategik va kompleks baholash usullari o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilganda yuqori natija beradi. Shuningdek, innovatsion faoliyat samaradorligi nafaqat iqtisodiy natijalar, balki texnologik rivojlanish, bilimlar oqimi va ijtimoiy samaralar orqali ham baholanishi lozim.

Amaliy tahlillar innovatsiyalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar va iqtisodiy natijalar o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Bu esa innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali korxonalar samaradorligini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish va uni baholash tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda kompleks yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunda moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda texnologik, ijtimoiy va bozor indikatorlari ham hisobga

olinishi zarur. Bu esa innovatsion jarayonlarning real natijalarini to'liq aks ettirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, innovatsion faoliyatni samarali boshqarish uchun korxonalarda KPI va Balanced Scorecard tizimlarini joriy etish tavsiya etiladi. Ushbu tizimlar innovatsion faoliyatni doimiy monitoring qilish, natijadorlikni baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga ajratiladigan investitsiyalar hajmini oshirish bilan bir qatorda, ularning samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu borada innovatsion loyihalarni tanlash va baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

To'rtinchidan, korxonalarda inson kapitalini rivojlantirish, xodimlarning innovatsion salohiyatini oshirish va innovatsion madaniyatni shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Chunki innovatsiyalarni yaratish va joriy etish bevosita inson omiliga bog'liqdir.

Beshinchidan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali innovatsion jarayonlarni tezlashtirish va ularning samaradorligini oshirish mumkin. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va raqamli platformalar innovatsion faoliyatni yangi bosqichga olib chiqadi.

Yuqoridagi takliflarning amaliyotga joriy etilishi korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligini sezilarli darajada oshirishga va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Allaniyazov P, Muratbaeva S, Abduvohidov D, & Komiljonova A. (2026). Innovatsiyalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi. Tadqiqotlar, 83(1), 211-218. <https://journals.org/index.php/tad/article/view/22567>.
2. Schumpeter J. A., Swedberg R. The theory of economic development. - Routledge, 2021. <https://acesse.one/9i9olbo>
3. Drucker, P. (1985). Innovation and Entrepreneurship. <https://11nk.dev/773e26p>
4. Porter, M. (1990). The Competitive Advantage of Nations. <https://scholar.google.com/scholar?q=Porter+Competitive+Advantage+of+Nations>
5. Freeman, C. (1984). The Economics of Industrial Innovation. <https://acesse.one/ox8ufs3>
6. Lundvall B. Å. (ed.). National systems of innovation: Toward a theory of innovation and interactive learning. - Anthem press, 2010. - T. 1.
7. Nelson R. R. National innovation systems //Regional innovation, knowledge and global change. - Routledge, 2013. - C. 11-26.
8. Davlatova, O. Innovatsion faoliyat samaradorligini baholash usullari. <https://scholar.google.com/scholar?q=Davlatova+innovatsion+faoliyat+samaradorligi>
9. Allaniyazov, P. Innovatsion loyihalar samaradorligi. <https://scholar.google.com/scholar?q=Allaniyazov+innovatsion+loyihalar>

10. Fatxutdinov, R. A. Innovatsion menejment.
<https://scholar.google.com/scholar?q=Fatkhutdinov+innovation+management>.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, yanvar, 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**